

## 6-SINF ONA TILI DARSLIGIDA O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN TOPSHIRIQLAR TAHLILI

*Jamolova Sohiba Furqat qizi*

*ToshDO'TAU OTAT fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 6-sinf ona tili darsligida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar tahlili va ularning xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi, shuningdek, o'quvchi kompetensiyalarini shakllantirishdagi amaliy samarasi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** 6-sinf, hayotiy ko'nikma, ona tili, umumta'lim, darslik tahlili, kompetensiya, integratsiya, JSST.

**Annotation:** This article analyzes the tasks aimed at developing life skills in students in the 6th grade native language textbook created based on the National Curriculum, their compliance with international recommendations, as well as their practical effectiveness in forming student competencies.

**Keywords:** 6th grade, life skills, native language, general education, textbook analysis, competence, integration, WHO.

**Аннотация:** В статье анализируются задания, направленные на развитие жизненных навыков учащихся в учебнике родного языка для 6-го класса, созданном на основе Национальной учебной программы, их соответствие международным рекомендациям, а также их практическая эффективность в формировании компетенций учащихся.

**Ключевые слова:** 6-й класс, жизненные навыки, родной язык, общее образование, анализ учебника, компетентность, интеграция, ВОЗ.

Texnologiya, globallashuv va muammolarni yechish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanar ekan, yosh avlodga asosiy hayotiy ko'nikmalarni singdirish zarurati ortib bormoqda. XXI asrda yashayotgan insonlar uchun an'anaviy akademik bilimlar kifoya qilmaydi; murakkab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga bardosh berish uchun keng qamrovli kompetensiyalar talab etiladi. Shu bois ta'lim tizimlari butun dunyo bo'ylab o'quv dasturlariga hayotiy ko'nikmalarni integratsiya qilishga harakat qilmoqda. O'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishda kommunikativ, ijtimoiy-psixologik, madaniy hamda hayotiy tayyorgarlik ko'nikmalariga ega bo'lishi asosiy mezon sifatida belgilanmoqda.

Hayotiy ko'nikmalar o'quvchilarda ruhiy farovonlik va samaradorlikni rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar savodxonlik, hisob-kitob qilish, raqamli ko'nikmalar kabi asosiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek ekologik va rivojlanish ta'limi sohalarida ham qo'llanilishi mumkin. Hayotiy ko'nikmalar o'quvchilarga jamiyatda ijobiy munosabatda bo'lish, faol ishtirok etish va uzluksiz o'rganishda qatnashish imkonini beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hayotiy ko'nikmalarni quyidagicha ta'riflaydi: *“Shaxsning kundalik hayotda uchraydigan talablar va muammolarni samarali hal qilishga imkon beradigan ijobiy va moslashuvchan xatti-harakat qobiliyatlari.”*

Bu shuni anglatadiki, hayotiy ko'nikmalar — bu o'quvchilarga ijobiy xulq-atvor va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga, sog'lom hayot tarziga intilishga va o'zgaruvchan ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlanishga yordam beruvchi strategiya, qobiliyat, tajriba va malakalardir. Hayotiy ko'nikma — bu insonning erta yoshlikdan balog'at yoshigacha bo'lgan hayoti davomida egallaydigan va amalda qo'llaydigan qobiliyatidir.

Hayotiy ko'nikmalar deganda, XXI asr ko'nikmalarini o'qitish orqali o'quvchilarni hayotga tayyorlash, maktablarda yuz berayotgan

huquqbuzarliklarning oldini olish, turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarini mustaqil hal etish, zo'raonlik va unga qarshi kurashishga o'rgatish, yetakchilik, mediasavodxonlik masalalarining motivatsion yechimlari, global fuqarolik ko'nikmalar nazarda tutiladi[Mavlonova, 2021:2].

JSST, UNICEF va UNESCO kabi yirik xalqaro tashkilotlar quyidagi asosiy hayotiy ko'nikmalarni belgilashgan:

**O'zini anglash** (Self-Awareness): Shaxsning o'zini, his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini, kuchli va zaif tomonlarini tushunish qobiliyati.

**Hamdardlik** (Empathy): Boshqalarni, ularning fikr va xatti-harakatlarini tushunish va qabul qilish qobiliyati.

**Tanqidiy fikrlash** (Critical Thinking): Odamlar, hodisalar va narsalar haqida ongli va aqlli xulosa chiqarish qobiliyati.

**Ijodiy fikrlash** (Creative Thinking): Mavjud holatlarni baholab, yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish jarayoni.

**Qaror qabul qilish** (Decision Making): Mavjud variantlar ichidan eng to'g'ri tanlovni amalga oshirish qobiliyati.

**Muammolarni hal qilish** (Problem Solving): Hayotdagi muammolarni ishonch bilan hal qilish va samarali yechim topish qobiliyati.

**Samarali muloqot** (Effective Communication): Og'zaki va noverbal usullar orqali fikr, hissiyot, ehtiyoj va tashvishlarni ifodalash qobiliyati.

**Shaxslararo munosabat** (Interpersonal Relationship): Oila va jamiyatda do'stona munosabatlarni saqlab qolish qobiliyati.

**Stressni yengish** (Coping with Stress): Hayotdagi stress manbalarini aniqlab, ularni boshqarish qobiliyati.

**Hissiyotlarni boshqarish** (Coping with Emotions): O‘zimiz va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga mos javob berish qobiliyati.

Bu ko‘nikmalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, har biri boshqalarini qo‘llab-quvvatlaydi va to‘ldiradi. Bundan tashqari, har bir asosiy ko‘nikma ichida qo‘shimcha kichik ko‘nikmalar bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarning kelajakdagi hayoti uchun eng muhim vositalardan biri bu ta’limdir. Ta’lim o‘quvchilarga zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni egallash orqali ularga kerakli xulq-atvorni shakllantirib, ularni qurollantiradi va kuchaytiradi. Hayotiy ko‘nikmalar bu har kuni hayotda duch kelinadigan qiyinchiliklarga muvaffaqiyatli tarzda qarshi turishga yordam beruvchi ijobiy xatti-harakat kuchidir.

O‘rta ta’lim bosqichi shaxsiyat shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, uni juda ehtiyotkorlik bilan yo‘naltirish lozim. Chunki, shu orqali jamiyat ustivorligi uchun zarur bo‘lgan kuchli avlod shakllanadi. O‘rta bosqichdagi o‘quv dasturi muammoni hal qilish, taxmin qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini talab qiluvchi strategiyalarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu bosqich o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashlari va ishonchlilik hissini shakllantirish davridir. Bu yillar ularning kundalik hayot, maktab va jamiyatdagi kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tilini o‘qitish samaradorligi o‘quvchilarning ona tilini tabiiy hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati va hayot talablari hamda muammolariga moslashuvchan tarzda javob bera olish qobiliyatlari bilan baholanadi. Ta’lim vazirligi ona tilini o‘quvchilarning kundalik hayotiga bosqichma-bosqich, maktabgacha ta’limdan boshlab, o‘rta bosqichgacha kiritish uchun mas’uldir. Buning uchun esa jamiyat ehtiyojlari, fikrlari va e’tiqodlariga mos ravishda ishlab chiqilgan puxta o‘ylangan o‘quv dasturi zarur.



Ona tili darsliklarini ishlab chiquvchilar o'quvchilarni jamiyatga jalb qilish va ularni real hayotda faol a'zoga aylantirish uchun darsliklarga turli hayotiy ko'nikmalarni kiritishlari kerak.

Pedagogik metodologiyalarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi asosiy yondashuvlar qo'llaniladi:

- **Faoliyatga asoslangan yondashuv:** real hayotiy muammolar asosida o'qitish;

- **Kontekstual o'rgatish:** til vositasida real vaziyatlarga mos topshiriqlar;

- **Ko'p ko'nikmali integratsiya:** bir topshiriqda bir nechta ko'nikmani uyg'unlashtirish.

O'zbekiston ta'lim tizimida bu yondashuvlar fanlar orqali integratsiyalashtirilmoqda. Ayniqsa, ona tili fanining lingvistik xususiyatlari va kommunikativ yo'naltirilgan topshiriqlari orqali hayotiy ko'nikmalar samarali shakllantirilishi mumkin.

6-sinflar boshlang'ich ta'limning o'rta bosqichi bo'lib, o'quvchilar intellektual va hissiy jihatdan ulg'ayib, boshqalarning tuyg'ularini tushuna boshlaydigan davrdir. Demak, bu bosqichda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish kelgusidagi ta'lim va hayot uchun poydevor yaratadi.

2022-yilgi 6-sinf "Ona tili" darsligi mazmuni o'zbek tili grammatikasi, uslublari va matn turlari bilan bir qatorda, o'quvchilarda hayotga tayyorgarlikni shakllantiruvchi mavzular va topshiriqlarni ham o'z ichiga oladi.

6-sinf "Ona tili" darsligida berilgan **"Global isish"** nutqiy mavzusida qanday hayotiy ko'nikmalarga e'tibor berilganini tahlilga tortamiz.

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** ekologiyaga oid atamalar bilan tanishish, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash; grafik ko'rinishda berilgan axborotlarni o'qib tushunish, ularni o'zaro bog'lash, berilgan materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yozishni

mashq qilish; sifat darajalariga oid bilimlar bilan tanishish, ko'rsatish olmoshlari, ularning imlosi, atoqli otlar imlosiga oid bilimlarni mustahkamlash.<sup>1</sup>

1-soatning dastlabki topshirig'ida global isish sabablari va uning oqibatlarini bilan bog'liq 7 xil rasm berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda og'zaki suhbatga chorlanadi. Rasmlar asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi quyidagi savollar beriladi:

***1. Global isish deganda ko'z oldingizga nima keldi? "Global" so'zining ma'nosi nima?***

Ushbu savol orqali o'quvchilarda quyidagi hayotiy ko'nikmlarni shakllantirish mumkin:

*Ijodiy fikrlash* – o'quvchi o'z tasavvurlari asosida fikr bildiradi.

*O'z fikrini aniq ifodalash* – shaxsiy nuqtai nazarni bildiradi.

*Ekologik ong* – tabiatga nisbatan munosabatni shakllantiradi.

***2. Rasmlarda qanday jarayonlar tasvirlangan?***

Ushbu savol orqali o'quvchilarda quyidagi hayotiy ko'nikmlarni shakllantirish mumkin:

*Grafik savodxonlik* – rasmlari axborotni tahlil qilish.

*Tanqidiy fikrlash* – tasvirni hayotiy voqea bilan bog'laydi.

*Ekologik tarbiya* – atrof-muhitdagi muammolarni tushunadi.

***3. Insonning global isishga qanday ta'siri bor?***

---

<sup>1</sup> 6-sinf, metodik qo'llanma / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

Ushbu savol orqali o'quvchilarda quyidagi hayotiy ko'nikmlarni shakllantirish mumkin:

*Mas'uliyat hissi* – o'z harakatlarining oqibatini tushunish.

*Muammoni hal qilish* – sabab-oqibatni ko'rish orqali yechim izlash.

*Empatiya* – inson va tabiat o'rtasidagi nozik bog'liqlikni tushunish.

Yana bir topshiriqda esa o'quvchilardan ***“Iqlim o'zgarishi va global isish”*** haqida og'zaki axborot berish so'ralgan. Bu topshiriqni bajarish davomida ham o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin:

– *og'zaki nutqni rivojlantirish;*

– *dalillash va asoslash;*

– *mustaqil taqdimot ko'nikmalari.*

Keyingi topshiriqda matn asosida sifatlarni ajratish va izohlash so'raladi.

Ushbu topshiriq orqali shakllantirish mumkin bo'lgan hayotiy ko'nikmlar:

*Til birliklaridan ongli foydalanish.*

*Tanqidiy fikr* – qanday darajadagi sifat qo'llanganini tahlil qiladi.

*Analitik fikrlash* – matn ichidagi tuzilmani anglaydi.

*Aniqlik va izohlilikni tushunish.*

2-soatda matn berilgan va matn xulosasiga fikr bildirish so'ralgan. Bu topshiriq orqali shakllantirish mumkin bo'lgan hayotiy ko'nikmalar:

– *baholovchi fikr bildirish;*

– *shaxsiy nuqtai nazarni asoslash;*

– *axloqiy va ekologik qarashlarni shakllantirish.*

Keyingi sotlarda esa global isish va migratsiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar berilgan. Va ushbu topshiriqlar orqali shakllantirish mumkin bo'lgan ko'nikmalar quyidagilar:

*Kompleks muammoli fikrlash.*

*Ijtimoiy ong – jamiyatdagi global o'zgarishlarga nisbatan sezuvchanlik.*

*Tahliliy fikr va sabab-oqibat bog'lanishini ko'rish.*

**“Global isish”** mavzusi orqali o'quvchilarda quyidagi asosiy hayotiy ko'nikmalar shakllanadi:

- *Ekologik mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi.*
- *Mustaqil va tanqidiy fikrlash.*
- *Tabiat va inson orasidagi muvozanatni tushunish.*
- *Tashqi axborotni o'rganish, tahlil qilish, qayta ishlash.*
- *O'z fikrini asosli, hujjatli tarzda ifodalash.*

6-sinf o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun quyidagi didaktik yondashuvlar tavsiya etiladi:

**Metakognitiv yondashuv:** O'quvchining o'z fikrini kuzatish, nazorat qilish va o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi (masalan, “Tarjimayi holingizni yozing va o'zingiz tekshirib ko'ring” topshirig'i).

**Faoliyatga asoslangan yondashuv:** Nazariy ma'lumot emas, real hayotiy vazifalarni yechish orqali o'rganish (masalan, “Yong'in chiqqan taqdirda nima qilasiz?”).

**Integrativ yondashuv:** Bir nechta ko'nikmalar bir vazifada qo'shiladi. Masalan, “Global isish” mavzusi orqali: dalillash + yozma nutq + ekologik ong + tanqidiy fikr.



О'qituvchilar uchun tavsiyalar:

- Har bir topshiriqni muhokama asosida bajarish.
- O'quvchilarning shaxsiy fikrlarini eshitishga imkon berish.
- Videoroliklar, rasmlı materiallar bilan boyitish.
- Natijani yozma va og'zaki taqdimot bilan yakunlash.

**Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki,** “Global isish” mavzusi o'quvchılarda nafaqat ekologik ongni shakllantiradi, balki tanqidiy fikrlash, dalillash, empatiya, yozma va og'zaki muloqot, axborotni tahlil qilish kabi zamonaviy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi. Har bir topshiriq hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan bo'lib, darsni metodik jihatdan boyitadi. 6-sinf “Ona tili” darsligidagi mavzular va topshiriqlar o'quvchılarda hayotiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikdagi mavzular orqali shaxsiy o'sish, ijtimoiy moslashuvchanlik, muloqot va tanqidiy fikr kabi zamonaviy kompetensiyalarni egallashga yo'l ochiladi. Bu darslik nafaqat til, balki hayot uchun o'rgatadi. Hayotiy ko'nikmalarni fanlar orqali, ayniqsa ona tili darslari orqali singdirish O'zbekiston ta'lim strategiyasi uchun dolzarb vazifadir. Darslikdagi topshiriqlar nafaqat kommunikativ savodxonlikni, balki shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni ham shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. WHO. Life Skills Education for Children and Adolescents in Schools. Geneva, 1997.
2. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. 2017.
3. Jebreen, A. (2021). Integrating Life Skills in ELT: Strategies and Problems.
4. Al-Khazaleh, Z. (2020). The Life Skills Included in Secondary Stage

English Language Textbooks in Jordan.

5. K. M. Mavlonova va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.

6. K.Mavlonova va b. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Ta'lim, fan va madaniyat ishlari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YUNESKO) tomonidan 2021-yil nahr etilgan. IOHECKO, 2021.

7. K. M. Mavlonova va b. Ona tili. 6-sinf, metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

### References:

1. WHO. Life Skills Education for Children and Adolescents in Schools. Geneva, 1997.

2. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives, 2017.

3. Jebreen, A. Integrating Life Skills in ELT: Strategies and Problems, 2021.

4. Al-Khazaleh, Z. (2020). The Life Skills Included in Secondary Stage English Language Textbooks in Jordan, 2020.

5. K. M. Mavlonova va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.

6. K.Mavlonova va b. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Ta'lim, fan va madaniyat ishlari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YUNESKO) tomonidan 2021-yil nahr etilgan. IOHECKO, 2021.

7. K. M. Mavlonova va b. Ona tili. 6-sinf, metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.